

## SHOIR K.KARIMOVNING SHE'RIYATIDA ANTITEZA USULI

**Aralbaeva.Q**

*Qoraqalpoqston Respublikasi. Xo'jayli tumani*

*1-sonli maktabning qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchisi*

[aralbaeva1@gmail.com](mailto:aralbaeva1@gmail.com)

Shoir K.Karimov o'z she'riyatida fikrni badiiy, obrazli tarzda yetkazib berishda stilistik figuralardan biri bo'lgan antitezalardan ham juda mahorat va o'ziga xoslik bilan foydalanganligini uning tahliliga kirish jarayonida guvohi bo'ldik. Antiteza shoir lirikasida ikki fikrni bir-biri bilan solishtirish, emotsiyani yanada kuchliroq yetkazib berish, ekspressivlikni oshirish maqsadida tez-tez uchrab turadi.

Shoir K.Karimovning she'riyatida ham ikki obyekt, hodisa yoki insonlarning qandaydir belgilari, xususiyatlari o'zaro qarama-qarshi qo'yilib, taqqoslanib tasvirlanishi ko'plab uchrashiga uning she'rlarini tahlil qilish jarayonida guvoh bo'ldik. Misol uchun, shoirning "Antidunyo" nomli she'rini olib qaraylik. Qo'shiqning nomidan ma'lum bo'lib turganidek hayotimizda bo'layotgan yoki endi bo'ladigan hodisalar, voqealar, odamlarning ham bu dunyoda bir-biriga qarama-qarshi ekanligini, hamma narsa teng emasligini anglatib turgandek seziladi:

"Tongda chiqaman" deb botadi quyosh,  
Mehr uyg'otadi ko'zda tomchi yosh,  
Qayta tug'ilmoq uchun ketamiz biz ham,  
Dunyoga bir marta kelganimiz rost.

Bu satrlarda antonim so'zlarni qo'llash, shuningdek, parallelizmning ta'siri orqali ham antiteza yasalganligini ko'rishimiz mumkin. Chindan ham, olamni yoritib turuvchi quyosh ham mangu turmaydi, u tongda chiqsa, tunda o'z uyasiga





botadi, bir tomchi yosh ham toshbag'ir odamni erita oladi. Xuddi shunday bu olamda insonlar ham mangu turmaydi. Bu tabiatning qonuniy hodisasi. Demak, hayot va o'lim bir-biriga mutlaqo zid tushunchalar. Yuqoridagi satrlar orqali shoir shuni tasvirlamoqchi bo'lgan.

Shoirning quyidagi "Epopeya" nomli to'rtligida ham hayot haqidagi falsafiy qarashlari, bu olam haqida anglaganlari antitezali usulda tasvirlanadi. Bu satrlarda ham hayot va o'lim, yashash, tug'ilish, davr haqidagi fikrlari obrazli tarzda aks etadi. Shoir insonning dunyoga kelib, uning beshikka o'ralib voyaga yetishi, dastlabki qadami toy-toydan boshlab yaxshi yurib, yugura olishi, davr bilan qadam-baqadam bo'lishi, o'sha zamonga mos yashashi, insonlar bilan munosabati barchasini izchil bog'lab, eng oxirida hamma ham qora tuproqqa qorishishini aytmoqchi bo'ladi. Ya'ni bu yerda tug'ilish va o'lish bir-biriga keskin zid ma'noga ega so'zlar. Bu hammaga tushunarli holat bo'lsa-da, shoir bu so'zlarga ortiqcha emotsiya berib, ularni turlicha aks ettirib bera olgan.

Tug'ilgandan boshlab beshikgacha,  
Dastlabki qadamdan eshikkacha,  
Qadamlab davrdan-davrgacha,  
Hamda yetib bormoq qabrgacha

Shoir K.Karimov ham o'z asarlarida antiteza usulidan yetarlicha mohirona foydalanib, badiiy obrazni yanada jonli tarzda yarata olganligiga uning she'rlarini o'qish jarayonida guvoh bo'lamiz. Shoir oddiy eshik detalini qo'llab, hayotda bo'ladigan hodisani jonli tarzda ochib bera oladi. Bunda unga antiteza usuli yaqindan yordam berganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Magar eshik ixtiyori o'zida emas,  
Shunda u nimalarga sodiq bo'ladi.  
Ba'zan yopiq bo'lsang  
YOPILMOQCHI emas



## **ZARUR PAYTDA**

Yopiq bo'ladi.

Bu satrlar orqali shoir insonlarning hayotidagi yo'lni nazarda tutayotgandek. Eshik biz bilamiz uyni qo'riqlab turuvchi, tashqaridan kelgan chang-to'zonni sal bo'lsa ham to'xtatuvchi buyum. U ochiladi va yopiladi. Uni ochish ham, yopish ham insonning qo'lida. Sening baxting uchun olib boruvchi eshik ham birda yopiq bo'lsa, birda ochiq. Uni faqat insonning tinimsiz mehnati, sa'y-harakatigina kashf etishi mumkin. Shuningdek, bu satrlar orqali insonlar uchun zarur bo'lgan yordamni, ko'makni ham tushunishimiz mumkin. Sababi, inson qandaydir noqulay vaziyatga tushib qolganda, yordam zarur bo'lgan vaqtda ba'zi odamlar yordamini berishi ham mumkin, ba'zilar yo'q. Shunday qilib sodda, ammo keng tushunchaga ega ma'noni anglatib tasvirlay olishi shoirning mahoratidan dalolat berishi shubhasiz.

Umumlashtirib aytganda, K.Karimov adabiyot maydonida shoir, tarjimon, yozuvchi sifatida tanilgan bo'lsa, xalqqa jamoat arbobi, davlat arbobi sifatida ham ma'lum bo'lib, uning adabiyotga qo'shgan hissasi she'riy va nasriy asarlarining salmog'i bilan belgilanadi. Bu ish qoraqalpoq adabiyotida o'ziga xos so'qmoqqa ega shoir K.Karimov she'riyatining badiiy o'ziga xosligi masalalariga bag'ishlandi. Shoir ijodi adabiyotimizda to'liq bahosini olgani yo'q. Shu bois, shoir ijodini yanada keng va chuqur o'rganish adabiyotimizdagi dolzarb masalalardan biri deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Каримов К. Қарақалпақ – елим мениң. Toshkent. "Yangi kitob", 2020.
2. Бобоев. Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, "Ўзбекистон", 2002.
3. Dosımbetova A. Ádebiyatta kórkemlew quralları. Nókis. "Qaraqalpaqstan". 2017.